



RAQAMLI ZAMON VA MILLIY ETNOMADANIYATNING UYG'UNLIGI
СОЧЕТАНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭПОХИ И НАЦИОНАЛЬНОЙ
ЭТНОКУЛЬТУРЫ
THE COMBINATION OF DIGITAL AGE AND NATIONAL
ETHNOCULTURE

Iskandarova Oqiljon Shavkat qizi

Andijon davlat pedagogika instituti ijtimoiy gumanitar fanlar va san'at fakulteti
Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola raqamli texnologiyalar davrida milliy etnomadaniyatning saqlanishi, rivojlanishi va ommalashuvi masalalariga bag'ishlangan. Unda raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va virtual muhitning xalq madaniyati va an'analarini global miqyosda targ'ib qilishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning milliy qadriyatlarni saqlash va ulardan samarali foydalanish borasidagi imkoniyatlari hamda ehtimoliy xavf-xatarlari yoritilgan.

Аннотация: Данная статья посвящена вопросам сохранения, развития и популяризации национальной этнокультуры в эпоху цифровых технологий. В нем анализируется значение цифровых платформ, социальных сетей и виртуальных сред в продвижении национальной культуры и традиций в глобальном масштабе. Также выделены возможности и потенциальные опасности цифровых технологий с точки зрения сохранения национальных ценностей и их эффективного использования.

Abstract: This article is devoted to the preservation, development and popularization of national ethnoculture in the era of digital technologies. It analyzes the importance of digital platforms, social networks and virtual environments in the promotion of national culture and traditions on a global scale. Also, the opportunities and potential dangers of digital technologies in terms of preserving national values and their effective use are highlighted.

Kalit soʻzlar: Etnomadaniyat, virtual, globallashuv, raqamli texnologiyalar, an'ana, qadriyat, jamiyat, madaniyat, Facebook, Instagram, Tik Tok, Sivilizatsiya, ijtimoiy, Ilmiy.

Ключевые слова: Этнокультура, виртуальная, глобализация, цифровые технологии, традиция, ценности, общество, культура, Facebook, Instagram, Tik Tok, Цивилизация, социальная, Научная.



Key words: Ethnoculture, virtual, globalization, digital technologies, tradition, value, society, culture, Facebook, Instagram, Tik Tok, Civilization, social, Scientific.

Kirish: Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Milliy etnomadaniyat – bu xalqning an’anaviy qadriyatlari, urf-odatlari, til va san’atning o’ziga xosligini aks ettiruvchi muhim boylikdir. Raqamli texnologiyalar ushbu boyliklarni nafaqat saqlash, balki yangi avlodlarga yetkazish uchun samarali vositaga aylanmoqda. Shu sababli, raqamli zamon va, milliy etnomadaniyatning uyg’unligi haqida so’z yuritish ahamiyatlidir.

Ma’lumki, boqiy qadriyatlar inson, millat, jamiyat hayoti va faoliyati uchun muhim sanalgan, qadriyatlar shakillanishini ifodalaydigan tushunchadir. Oila, mahalla, ijtimoiy institutlar va davlatlar, ona tili, din avlodlar o’rtasidagi vorisiylik, tarixi va tarixiy xotira, tinchlik, barqarorlik, ozodlik va faravonlik kabi hech qachon o’z qadrini yo’qotmaydigan eng yuksak ta’limot va tamoyillar hammamiz uchun abadiy qadriyatlar sifatida namoyon bo’ladi.

Bugungi yangilanayotgan jamiyatimiz ko’hna tarix, boy ilmiy meros, rang barang madaniyat, o’ziga xo urf- odat va an’analari bilan jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo’shgan xalqimizning milliy tiklanishi bilan bog’liq rivojlanish bosqishi sharoitida yashamoqda. Istiqlol o’tmishdan meros bo’lib otgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarga yangicha nigoh bilan qarash yalpi milliy tiklanish umummilliylik ma’naviy islohatlarning amalga oshirishga asos yaratadi. Ushbu islohatlar milliy ong, milliy madaniyat, milliy o’zlikni anglash, milliy qadriyatlarni, milliy til, milliy g’urur singari millatni millat qilafigan fazilatlar va xislatlarni tiklash hamda ularning milliy mazmunini yangi sharoitda yanada boyitish imkonini beradi.

Milliy madaniyatni rivojlantirish borasida ko’plab chora tadbirlar amalga oshirilgan. Xususan mamlakatimiz prezidenti ham nutuqlaridan birida:

“Aholi, xususan yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dodegalarining qobiliyati va salohiyatini ro’yobga chiqarish borasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirildi” deb aytib o’tgan muxtaram prezidentimiz.

Asosiy qism:

1. Raqamli texnologiyalarning milliy etnomadaniyatni saqlashdagi ro’li :



Raqamli arxivlar: Milliy madaniyatning turli ko`rinishlarini saqlash uchun raqamli arxivlar yaratilmoqda. Bu arxivlarda xalq og`zaki ijodi, kuy-qo`shiq, xalq amaliy san`ati namunalarini to`plash va tizimlashtirish imkoniyati mavjud.

Virtual muzeylar: Virtual platformalar orqali madaniy meros obidalari, xalq san`ati va hunarmandchilik mahsulotlarini ommaga namoyish qilish kengaymoqda. Masalan, Samarqand, Buxoro shaxarlari haqidagi virtual ekskursiyalar.

2. Ijtimoiy tarmoqlar va milliy madaniyatning ommalashuvi;

Global auditoriyaga yetkazish: Facebook, Instagram, Tik Tok kabi platformalarda milliy raqs, kiyimlar va kuylarni namoyish etish orqali dunyoga tanitilmoqda. Masalan, o`zbek milliy kuylarini namoyish etish orqali yoshlar o`rtasida ommalashmoqda.

3. Raqamli texnologiyalarning etnomadaniyatga ijobiy va salbiy ta`siri;

Ijobiy ta`siri: Madaniy merosni global miqyosda tanitish.

Madaniy o`zlikni yo`qotmasdan, zamonaviylikka moslashish imkoniyati.

Salbiy ta`siri: Madaniyatning tijoratlashuvi va an`anlarning o`z mazmunini yo`qotish xavfi.

Globallashtirish natijasida kichik madaniy guruhlarning yo`q bo`lib ketishi.

4. Raqamli platformalarda milliy madaniyatni rivojlantirish strategiyalari.

Milliy kontent yaratish va uni tarqatish qo`llab-quvvatlash.

Yoshlarni milliy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishda faol ishtirokini rag`bantlantirish.

Milliy madaniyatni o`rganish uchun onlayn kurslar va loyihalarni tashkil etish.

O`zbekistonda milliy madaniyat kunlari ham tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi. Chunki ma`naviyat va ma`rifat davlat va xalqning bugungi va ertangi tinch, farovon hayotida muhim o`rin tutadi. To`g`ri, davlat ravnaqiga rivojlangan mamlakatlarning ilm-fan, texnika, iqtisodiy jihatdan yutuqlaridan andoza olish mumkin. Biroq madaniyat va ma`naviyat borasida bu mumkin emas. O`zlikni saqlab, rivojlantirib borgan xalq chin ma`noda mustaqil va baxtli bo`la oladi.

Xulosa:

Milliy madaniyatni zamonaviylik bilan uyg`unlashtirish, yosh avlodni xalq an`analariga yaqinlashtirish va raqamli vositalar orqali milliy madaniyatni targ`ib qilish orqali biz har bir insonni milliylikka undashimiz mumkin. Raqamli zamon milliy etnomadaniyatning asrash va rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu jarayonda milliy qadriyatlarini raqamli vositalar orqali ommalashtirish, yosh avlod ongiga singdirish, shu bilan birga ularning asl mazmunini yo`qotmaslik



muhim ahamiyatga ega. Raqamli dunyo va milliy madaniyatning uyg'unligi- bu zamonaviy texnologiyalar yordamida madaniyatni yangi bosqichga olib chiqishning eng samarali usulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Etnomadaniyat darslik “ijtimoiy fanlar kafedrası” Andijon 2024
2. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nutqlaridan
3. Abdullayeva Nasiba Arabovna .“Etnomadaniyat” bo`yicha o`quv-qo`llanma 2022